

QODIRIY ROMANLARIDA QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING STATISTIK VA STRUKTURAL TAHLILI

Hazratova Charos Shuhrat qizi
*O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va
sport universiteti texnik muharriri*

Annotatsiya. *Xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan frazeologik birliklar badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi. Xususan, Abdulla Qodiriy ijodida o‘zbek maqollarining eng sara namunalariga duch kelamiz. Ushbu maqolada Qodiriy romanlarida qo‘llanilgan maqollarning orginal versiyasi tadqiq qilinib, o‘rganib chiqiladi. Ularning badiiy matndagi ma‘nosi va funksiyasi statistik va struktural tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *maqol, roman, o‘z ma‘no, ko‘chma ma‘no, statistik tahlil, struktural tahlil, metod, badiiy obraz, Abdulla Qodiriy.*

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodining eng kichik va tarixiy namunalaridan biri maqollardir. Muayyan aniq shaklga ega bo‘lgan, chuqur mazmunli, mantiqiy tugallangan, qisqa va lo‘nda adabiy janrga maqol deyiladi. Maqollardan badiiy adabiyotda, xususan, nasriy asarlarda personajlar xarakterini ochishda, ma‘lum bir g‘oyani asarga singdirishda, fikrlarni go‘zal ifodalashda foydalaniladi. Milliy romanchiligimizning tamal toshini qo‘ygan Abdulla Qodiriyning barcha asarlarida o‘zbek xalq maqollarining orginal versiyalariga duch kelamiz. Adib asar tilining uslubi, uning kimga tegishli ekanligini aniqlab turib shularga mos bo‘lgan maqollarni qo‘llaydi. Maqollardan foydalanish orqali yozuvchi o‘z fikrini qisqa va lo‘nda, obrazli va jarangdor, tushunarli va tasirli qilib ifodalashga erishadi. Shunday o‘rinlar borki Qodiriy birgina maqol orqali butun boshli bir voqeani izohlab bera oladi. Maqolada Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida foydalangan maqollari tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar

1. Teng tengi bilan tezak qopi bilan. (“O‘tkan kunlar” 29-bet)

Ushbu maqolning asil ma‘nosi hayotta har bir inson dunyoqarashi, mavqeyi, yoshi, mansabi jihatidan o‘ziga munosib, ma‘qul bir inson bilan yashashi kerakligini ifodalaydi. Qodiriy asarda bu maqolni To‘ybeka tilidan keltiradi va bu bilan Otabek va Kumushning bir biriga qanchalik mos ekanligini kitobxonga xalqona tilda anglatib ketadi.

2. Pes – pesni qorong‘uda topqan emish. (“O‘tkan kunlar” 62-bet)

Bir-biriga yaqin, hamfikir insonlarning birlashishi ma’nosini anglatadi. Bir qarashdayoq maqolda salbiy bo’yoqdorlik anglashilib turadi. Maqol ko’chma ma’noda kelgan. Asarda ushbu maqol Homid va qo’rboshi suhbatı jarayonida Otabek va Mirzakarimboyning qamalish voqeasida ikkalasining ham nomi qoralangan paytda, yaqinligi bor, tilbirkırgan ma’nosida qo’rboshi tilidan keltiriladi.

3.Dunyoniki miri kam ikki. (“O’tkan kunlar” 85-bet)

Maqol yashash oson emas, turmushning kami tugamaydi kabi ma’nolarni ifodalaydi. Asarda qo’rboshi tilidan Homiddan pul ta’ma qilish jarayonida keltirilgan.

4.Yov qochsa botir ko’payar. (“O’tkan kunlar” 94-bet)

Ushbu ma’qol ham o’z ma’noda, ham ko’chma ma’noda qo’llaniladi. Biror qiyinchilik o’tib ketgandan so’ng hamdardlarning, do’stlarning yonimizda paydo bo’ladigan holatlariga nisbatan bugungi kunda ham keng qo’llaniladi. Asarda ushbu maqol shahar a’yonlari tilidan Otabek va qutidor oqlangandan so’ng keltiriladi.

5.Birovga choh qazisang o’zing yiqilasan. (“O’tkan kunlar” 98-bet)

Maqol ko’chma ma’noda qo’llangan. Hayotimizda kimgadir yomonlikni ravo ko’rib, unga nisbatan fitna fasodlar uyushtirsa va oxir oqibat o’zining boshiga undan buyuk musibatlat keladigan holatlarga nisbatan aytiladi. Asarda ushbu maqol Otabek tilidan dushmanlari ustidan g’alaba qozongan holatga nisbatan aytiladi.

6.Og’riqning tuzalasi kelsa emchi o’z oyog’i bilan kelar. (“O’tkan kunlar” 114-bet)

Insonlar biror bir narsani astoydil xohlasa unga erishish ham osonlashadi kabi ma’noda ishlatiladi. Asarda ushbu maqol Musulmonqul tilidan Azizbekni yo’q qilish uchun Otabekdan foydalanmoqchi bo’lgan holatiga nisbatan qo’llanilgan.

7.Yegan og’iz uyalar. (O’tkan kunlar” 126-bet)

Maqol ko’chma ma’noda qo’llangan bo’lib, kimningdir bizga qilgan yaxshiligi uchun uning oldida o’zimizni hijolat bo’lmoq, o’zini kichik olmoq ma’nolarida ishlatiladi. Asarda Zaynabga sovchi bo’lib borilgan paytta qudalarning O’zbek oyimga ko’rsatilgan izzat – ikromlarga nisbatan uning ham mulozamat ko’rsatgan holatiga nisbatan qo’llanilgan.

8.Boshga tushganni ko’z ko’rar. (“O’tkan kunlar” 150-bet)

Maqol hayot haqiqatlari bilan bog’liq bo’lib, boshimizga keladigan hodisalarga rozi bo’lib qabul qilishimiz kerakligini anglatadi. Haqiqatdan ham, ushbu maqol vositasida butun bir voqea, ya’ni O’zbek oyim Otabekni Kumushdan ayirib olish uchun har turli yo’lni qidirgan holatiga nisbatan ishlatiladi.

9.Bir ko’rgan bilish, ikki ko’rgan tanish. (“O’tkan kunlar” 161-bet)

Maqol o’z ma’nosida qo’llangan bo’lib, insonlarning bir-birlarini tanigani sari, munosabatlarning yaqinlashishini bildiradi. Asarda ushbu maqol Jannat xola tilidan Kumush bilan suhbatı chog’ida ishlatiladi.

10. Egasini siylagan itiga suyak tashlar. (“O’tkan kunlar” 283-bet)

Biror inson bilan orasidagi munosabatni yaxshilamoqchi bo’lsang avval uning atrofidagilarga yaxshi munosabatda bo’l kabi ma’nolarni bildiradi. Asarda ushbu maqol Yusufbek hoji tilidan Qayum ponsad bilan bo’lgan qipchoqlar qirg’ini haqidagi bahs-munozarasi davomida keltiriladi.

11. Oy etak bilan yopilmas. (O’tkan kunlar” 285-bet)

Shunday xatolar, anglashilmovchiliklar bo’ladiki, ularni tuzatish uchun qancha urinsak ham kamlik qiladi. Asarning 3-bo’lim 4-bobi shunday nomlanadi. Bu bo’limda Otabekning Marg’ilonda “dushmanlari ustidan qozongan “g’alabasi” otasining qulog’iga yetib keladi. Va Yusufbek hoji bilan Otabek o’rtasida bo’lib o’tgan suhbat bayon etiladi.

12. Kampirning dardi g’o’zada, sichqonning ko’zi donlik ko’zada. (“O’tkan kunlar” 291-bet)

Ushbu maqol hammaning o’ziga yarasha dardi, tashvishi borligi haqida. Ko’chma ma’noda qo’llanilgan. Maqol asarda O’zbek oyimning ichki kechinmalarini ifodalab berish uchun keltiriladi.

13. Siylaganni siylash kerak. (“O’tkan kunlar” 288-bet)

Maqolning ma’nosi yaxshilik qilganga yaxshilik bilan javob qaytarish haqida. Yusufbek hoji nutqida keltirilgan ushbu maqol Otabekka Toshkentga kelayotgan qayin ota-onasini hurrat – izzat qilib kutib olishi kerakligini ta’kidlagan holatida aytiladi.

14. Zo’ri behuda miyon shikanad.

15. O’rinsiz chiransang beling sinadir. (“O’tkan kunlar” 292-bet)

O’z va ko’chma ma’noda qo’llanilgan bu maqol insonlardagi ba’zi bir maqtancholik, manmanlik kabi illatlarga qarshi ishlatiladi. Ushbu tojik maqoli asarda Yusufbek hoji tilidan O’zbek oyimning Otabekni Kumushdan ajratib olish haqidagi fikriga qarshi keltiriladi. Bu o’rinda Yusufbek hojining qanchalik oqil insonligi yana bir bor ta’kidlab o’tiladi.

16. O’lganimdan kulaman, yuzimni yerga suraman. (O’tkan kunlar” 293-bet)

Maqol ko’chma ma’noda qo’llangan. Ba’zi holatlarda yomon vaziyatimizda ham o’zimizni boshqalar oldida kuchli ko’rsatishga, qo’lga olishga majbur bo’lamiz. Ushbu maqol Yusufbek hoji tilidan O’zbek oyim bilan bo’lgan suhbat mobaynida keltiriladi. Hoji jahli chiqsa ham bildirmaslik uchun, andisha qilganidan kulib qo’yishini aytadi.

17. Qars ikki qo’ldan chiqar. (“O’tkan kunlar” 296-bet)

Ko’chma ma’noda ishlatilgan bu maqol birgalik, ikki tonlama harakat ma’nosini ifodalaydi. Zaynab tilidan keltirilgan bu maqol Yusufbek hojining kelinlari bilan bo’lgan suhbat jarayonida keltiriladi.

18. Buzoq yaxshi bo’lsa, ikki onani ham emar ekan. (“O’tkan kunlar” 300-bet)

Maqol ko'chma ma'noda qo'llangan. Hamma narsa insonning o'z qo'lida ekanligini anglatadi. Asarda ushbu maqol Zaynabning onasi Mohira oyim tilidan keltirilgan bo'lib, Otabekning ikki xotinli ekanligiga, oila tichligi ham unga bog'liq ekanligini uqtiradi.

19. Tana buzoqning turqi taqq'anig'a tamg'a. ("O'tkan kunlar" 339-bet)

Insonni hech kim ota-onasichalik yaxshi tanimaydi. Maqol Oftob oyim tilidan O'zbek oyim bilan gaplashayotgan paytta Kumushning qanday fe'l atvorga ega ekanligini yaxshi bilishini ta'kidlash holatida keltirilgan.

20. Yig'lamagan bolaga sut berilmas. ("O'tkan kunlar" 345-bet)

Inson o'zi uchun o'zi harakat qilishi kerakligi haqida. Ushbu maqol asarda Zaynabning bolaligidagi fe'l atvorini ochiqlash uchun keltirilgan.

21. Sut bilan kirgan jon bilan chiqar. ("O'tkan kunlar" 345-bet)

Maqol inson tabiatidagi ba'zi fazilatlarni yo'q qilishni iloji yo'qligi haqida. Ushbu maqol ham muallif tilidan Zaynabning hatti harakatsriga nisbatan qo'llanilgan.

22. Itdan bo'lg'an qurbonliqqa yaramas. ("O'tkan kunlar" 348-bet)

Nasli buzuq, nafs hakalak otgan, fe'l atvori chirkin insonlar inson nomiga ham munosib emas degan ma'noni bildiradi.

23. Kundashlik uyda kunda janjal. ("O'tkan kunlar" 348-bet)

Yozuvchi ushbu maqol orqali yana bir ahamiyatli va dolzab mavzuni qalamga oladi. Kundashlik uyda hech qachon huzr halovat bo'lmasligini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

24. Ko'rpanga qarab oyoq uzat. ("O'tkan kunlar" 352-bet)

Insonlar qilayotgan hatti harakatlarini, aytayotgan gap so'zlarini o'zlarining holatidan kelib chiqib bajarishi kerak. Zaynabning opasi xo'shro'y tilidan qo'llanilgan ushbu maqolda Zaynabga aql o'rgatib, kundoshi bilan kurash olib borishga undagan Xushro'yning qanchalik quv va berahm ekanligini anglab yetamiz.

25. Yurtchilikda yurak og'rig'iga davo topilmay qolmas. ("Mehrobdan chayon" 12-bet)

Har qanday muammoning yechimi borligi haqida. Asarda ushbu maqol Mohlaroyimning holatiga nisbatan qo'llaniladi. Ya'ni Mahdumni uylantish masalasida kelin olgan joyiga qiz berib qiyinchiliklardan qutilmoqchi bo'ladi. Oxir oqibat o'zi xohlagandek qudalarni uchratgandan so'ng uning dardiga davo topildi ma'nosida ushbu maqol keltirilgan.

26. Hay etti huy etti, ikki koski to'y etti. ("Mehrobdan chayon" 13-bet)

Ushbu maqol Solih Mahdumning uylanish voqeasiga nisbatan ishlatilgan.

27. Oyni etak bilan yashirib bo'lmas. ("Mehrobdan chayon" 14-bet)

Asardagi bu maqol Solih maxdumning har qancha qiyinchilik ko'rgan, zamonasining ilmi insonlaridan biri bo'lishiga qaramay undagi xasislik, ziqnalikka o'xshash xislatlarini yashirishning umuman iloji yo'qligini anglatadi.

27. Xotin kishining boshi uy ichining og'ir toshi. ("Mehrobdan chayon" 18-bet)

Ushbu maqol Nigorxonim va uning qiyinchilik to'la hayotiga nisbatan keltiriladi

28.Oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorong'u. ("Mehrobdan chayon 19-bet")

Ushbu maqol Nigorxonimning yaxshi kunlarga yetishishi holatiga nisbatan keltirilgan. Ya'ni Solih mahdumdek o'ta ziqna inson bilan kechirilgan og'ir turmushdan so'ng Anvarning istiqboli orqasidan kelgan baxtli kunlar uning ko'nglini ko'taradi.

29.Osilsang baland dorga osil. ("Mehrobdan chayon" 42-bet)

Solih mahdum tarafidan Anvarga aytilgan bu maqol, uni bosh munshiylik vazifasini qabul qilishga ko'ndirish chog'ida keltirilgan.

30.Yovda bo'lsa tezagi tegar emish. ("Mehrobdan chayon" 43-bet)

Shahidbek tarafidan Solih mahdumga aytilgan bu fikr Anvar lavozimga ko'tarilsa Solih mahdumga ham bir muncha foydasi tegishiga ishora qilib aytilgan.

31.Qush tilini qush biladir. ("Mehrobdan chayon" 46-bet)

Ushbu maqol Anvarning opasi Nodira ukasini Solih mahdumning uyiga olib kelib o'sha yerda yashashini, ilm olishini xohlagan paytta maxdumning onasi uni tushunib iltimosini qabul qilish voqeasiga nisbatan ishlatilgan.

32.Hamon eski tos eski hammom. ("Mehrobdan chayon" 56-bet)

Ushbu maqol maxdumning ro'zg'origa nisbatan ishlatiladi. Ya'ni Anvar o'rdaga ishga kirib butun daromadini maxdumga keltirib bersa ham har kuni suyuq ovqat bilan qattiq non yeb kun kechirishi hech o'zgarmaydi.

33.Shamol bo'lmasa terakning boshi qimirlamas emish. ("Mehrobdan chayon" 61-bet)

Ra'no tilidan ishlatilgan bu maqol, Anvarning bosh munshiy bo'lish xabari balki to'g'ridir ma'nosida qo'llangan.

34.Mol ketti, jon ketti. ("Mehrobdan chayon" 65-bet)

Bu maqol Safar bo'zchi tilidan mollari zakotchi tarafidan olib qo'yilgan voqeaga nisbatan.

35.Oltin olmasang duo ol. ("Mehrobdan chayon" 66-bet)

Ushbu maqol Anvar Safar bo'zchining ishini hal qilib bersa ham hech narsa olmagan payt Safar bo'zchining duo qilgan holatida keltirilgan.

36.Ko'pni duosi ko'l. ("Mehrobdan chayon" 66-bet)

Safar bo'zchi tiliidan keltirilgan bu maqol, Anvarning hammaga yordam qilib xalqni duosini olishi, oqibatda bosh munshiylikka ham ko'tarilishiga ishonib Abdurahmon bilan bo'lgan munozarasida keltirilgan.

37.Andishaning otini qo'rqqoq qo'ydi. ("Mehrobdan chayon" 68-bet)

Adurahmon domla tilidan Safar bo'zchi bilan bo'lgan tortishuvida keltirilgan.

38.Sut bilan kirgan jon bilan chiqar. ("Mehrobdan chayon" 93-bet)

Maxdum tomonidan Anvarning kambag‘allar bilan dildan suhbatlashib ularga yordam berganini ko‘rgan holatda qo‘llaniladi.

39.O‘chadirg‘an charog‘ yoqin o‘chadir. (“Mehrobdan chayon” 111-bet)

Ushbu maqol har qanday ishning oxiri bordir ma’nosini bildiradi. Bu yerda ko‘chma ma’noda keltirilgan. Asarda har bir taxtga o‘tirgan xonning taxtdan ketishi ham borligi, taraqqiyot hech qachon to‘xtab qolmasligi ma’nosida keltirilgan.

40.Mishiq oftobga tekin chiqmaydir.(“Mehrobdan chayon” 139-bet)

Solih mahdum tomonidan aytilgan bu maqol Anvarning quruqqo‘l bilan kelganlarga yordam qilmasligi haqida yolg‘onlar uydirib, o‘ziga berishga uyalsa maxdumga berib ketishi mumkinligini aytib, har bir xizmatning o‘ziga yarasha badali bordur ma’nosini bildiradi.

41.It yeganini qusar.(“Mehrobdan chayon” 143-bet)

Solih mahdum tilidan keltirilgan bu maqol Anvarga G‘ozi eshonni yomonlagan payt ishlatiladi. Uning otasidan o‘tgan ta’makor inson ekanligini aytgan vaziyatiga nisbatan ishlatiladi.

42.Qo‘li sust kosibdan oyog‘i chaqqon gadoy yaxshi. (“Mehrobdan chayon” 145-bet)

Solih mahdum tomonidan Ra’noga nisbatan ishlatilgan bu maqol uni chaqqonroq harakat qilishga undaydi.

43.Az karnaychi yak kuf. (“Mehrobdan chayon” 149-bet)

Mahdum tarafidan foydalanilgan bu maqol Anvarni mulla Abdurahmonni o‘rda ishiga oling deb maslahat berganda ishlatilgan.

44.Jon olov jon er. (“Mehrobdan chayon” 164-bet)

Sultonali tilidan keltirilgan bu maqol Anvarni olovda isinib olishga undagan o‘rinda ishlatiladi. Olovni o‘tlik yigitning issiq quchog‘i emish deb ta’bir qiladi.

45.Yaxshilik qil daryoga tashla baliq bilmasa xoliq bilur. (“Mehrobdan chayon” 169-bet)

Maqol yaxshilik haqida bo‘lib, insonning birovga qilgan yaxshiligini hech kimga bildirishi shart emasligi, Alloh har bir ishimizni ko‘rib bilib turibdi degan ma’noda. Asarda bu maqol Anvar tilidan Safar bo‘zchiga nisbatan aytilgan.

46.Ko‘rpanga qarab oyog‘ uzat. (“Mehrobdan chayon” 171-bet)

Insonlar qilayotgan har bir hatti harakarini o‘zining ahvolidan kelib chiqib bajarishi kerak. Asarda bu maqol Safar bo‘zchi tilidan Abdurahmonning xizmatdan olinish voqeasiga nisbatan keltirilgan.

47.Bir qo‘chqorning boshi ketguncha minglab qo‘yning boshi kesilar. (“Mehrobdan chayon” 171-bet)

Safar bo‘zchi tilidan aytilgan bu maqol mirzo Anvarga tuzoq qurganlarga qarata aytilgan.

48. Ikki yorti bir butun. (“Mehrobdan chayon” 186-bet)

Anvar tilidan Ra’noga aytilgan bu maqol birgalikda osh qilgan holatida aytilgan.

49. Sallalik eshaklarning diringlashi og’ilxonagacha. (“Mehrobdan chayon” 199-bet)

Sultonali tomonidan aytilgan bu maqol Anvarga cho’ qaziganlarning oqibati haqida gapirganda ishlatiladi.

50. Suygan yorim sen bo’lsangko’rgan kunim ne bo’lg’ay. (“Mehrobdan chayon” 229-bet)

Shahodat mufti tarafidan aytilgan bu maqol Anvarni qo’l ostida ishlashga norozi ekanligini aytgan vaziyatda keltiriladi.

51. Qarg’a qarg’aning ko’zini cho’qimas. (“Mehrobdan chayon” 230-bet)

Abdurahmon tarafidan keltirilgan bu maqol Sultonaling Anvarni xonga sotishiga shupha qilgan payt ishlatiladi.

52. Do’sting uchun qon yut. (“Mehrobdan chayon” 239-bet)

Sultonali va Anvarning do’stligiga nisbatan ishlatilgan.

53. Egri to’nkaga – egri to’qmoq. (“Mehrobdan chayon” 181-bet)

Safar bo’zchi tilidan keltirilgan bu maqol orqali Abdurahmonning ishtan bo’shatilgani juda yaxshi ish bo’lganligi aytiladi.

Darhaqiqat, Qodiriy ilmiy merosini o’rganar ekanmiz xalq xazinasining durdona namunalarini, rango – rang janrlarini mahorat bilan qo’llaganiga guvoh bo’lamiz. Nafaqat maqollar, balki, matal hikmatli so’z, ibora kabi frazeologik birliklar Qodiriy nasriy asarlarida salmoqli o’rin egallaydi.

Xulosa

Maqollar xalqning ma’naviy mulki bo’lib, badiiy asarlarda turli xil maqsadlarda foydalaniladi. Abdulla Qodiriy o’z asarlarida xalq maqollardan unumli foydalanib, ularning purma’no hikmatlarini asarga singdirib o’quvchi e’tiborini jalb qilishga erishadi. Yozuvchi maqolni ba’zan o’z holicha, ba’zan butunlay o’zgartirib ko’chma ma’noda qo’llab, ularning ta’sirchanligini, badiiyligini oshiradi. O’quvchi bilan personajlar orasida mustahkam bir bog’ yaratadi. Shunday qilib, maqollar asar badiyatini oshirish bilan bir qatorda unga milliy ruh bag’ishlaydi, kitobxonda o’sha asarga nisbatan muhabbat paydo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qodiriy “O’tkan kunlar”,-Toshkent:Yangi nashr 2019.
2. A.Qodiriy “mehrobdan chayon”,- Toshkent: Yangi nashr 2019.
3. O‘zbek xalq maqollari.-Toshkent:Sharq 2012.
4. Mirzayev T. “O‘zbek xalq maqollari”.-Toshkent 2003.
5. O‘zbek xalq maqollari.- Toshkent: G’.G’ulom, 1978.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Manolar maxzani.- Toshkent 2001.
7. Shorahmedov Sh., Shomaqsudov Sh. Hikmatnoma.- Toshken, 1990.